

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH USULLARI

Bekmatova Umida Toshqulovna

*Sirdaryo viloyat PYMO‘MM Aniq va tabiiy fanlar
metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talim jarayonini sifatli amalga oshirishda interfaol metodlarning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, o‘qitish metodlar, kompetensiya, ilgor ta‘lim texnologiyasi, pedagogik jarayon, matn-test, zig-zag, pochta qutisi.

Ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning bilim olish, ko‘nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo‘g‘rilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi sanaladi, boshqacha aytganda, ta‘lim mazmunining o‘qitish metodlari yordamida o‘zlashtirilishiga erishishdir.

Metod so‘zi umumiy ma‘noda muayyan maqsadga erishish usulidir. O‘qitish metodlari tom ma‘noda o‘qituvchining bilimlarni o‘quvchilar ongiga yetkazish va ayni paytda ularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirib olish usulidir. Didaktikada o‘qitish metodlari quyidagi metodologik va nazariy qoidalarga asosan ta‘riflanadi: o‘qitish metodi o‘qitish jarayonining o‘ziga xos pedagogik sharoitda obyektiv reallikni bilish metodlarining ifodasi sanaladi, ya‘ni o‘qitish metodlari yordamida o‘quvchilarning bilish faoliyati tashkil etiladi va boshqariladi. O‘qitish metodlari o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Bu ularning asosiy funksiyalari sanaladi, shuningdek, mazkur metodlarning undovchi, rag‘batlantiruvchi, uyushtiruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalari ham mavjud. Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o‘quvchining ustunlik qilishi, uning o‘z fikrini o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi, o‘quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallaydilar. Interfaol metodlarning fo‘llanilishi o‘quvchilarda, ayniqsa, kommunikativ, milliy va umummadaniy, axborot bilan ishlash kompetensiyasi shakllanishiga imkon beradi.

Masalan:

1-topshiriq:”Matn+test” usuli.

Bunda o‘quvchilarga matn o‘qib beriladi yoki ovozli moslama yordamida matn eshittiriladi. O‘quvchilar diqqat bilan tinglaydi va quyida beriladigan testlarning

yechimini topishadi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqat va xotirasi mustahkamlanadi. Bu usul butun sinf bilan ishlaganda qo'llanadi.

Bir tup o'simlik ildizining tukchalari bir-biriga ulab chiqilsa, uzunligi 20 kmga yetishi mumkin. Ildiz tukchalarining faoliyati 10-20 kun davom etadi. Ildizning po'st hujayralari tirik, yumaloq va yupqa qobiqli bo'ladi. Makkajo'xorining 1 mm² so'rish qismida 700 ta ildiz tukchalari bo'ladi. G'o'za nihollarining ildizi bir kecha kunduzda 2-3 sm o'sadi.

Test

1. Bir tup o'simlik ildizining tukchalari bir-biriga ulab chiqilsa uzunligi qancha bo'ladi?

a) 10 km b) 20 sm d) 20 km

2. Ildiz tukchalarining faoliyati necha kun davom etadi.

a) 10-20 kun b) 20-31 kun d) 18-48 kun

3. Ildizning po'st hujayralari qanday tuzilgan?

a) o'lik, yumaloq, yupqa qobiqli

b) tirik, yumaloq, yupqa qobiqli

d) tirik, cho'ziq, qalin qobiqli

4. Makkajo'xorining 1 mm² so'rish qismida qancha ildiz tukchalari bor?

a) 700 ta b) 500 ta d) 300 ta

5. G'o'za nihollarining ildizi bir kecha kunduzda qancha o'sadi?

a) 5 sm

b) 10-20 sm

d) 2-3 sm

2-topshiriq: Zig-zag usuli

Bu usulda 1-qatorning ikki o'quvchisi juftlikda ishlab, savolga javob yozishadi.

2-qatorning ikki o'quvchisi juftlikda ishlab, savolning javobini tekshirib berishadi.

3-qatorning ikki o'quvchisi juftlikda ishlab javobni baholashadi.

Masalan: Sutmizuvchilarning ter bezlari tana harorati doimiylikini saqlash bilan birga yana qanday vazifa bajaradi.

Bajaruvchi:

Tekshiruvchi:

Baholovchi:

3-topshiriq;”Pochta qutisi”usuli.

Bu usulni guruhlarda ham, kichik juftliklarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilarga turli mavzular yuzasidan aralash atama va tushunchalar aralash holatda beriladi. Pochta qutisi berilgandan so'ng o'quvchilarga quti ichidagi so'z yoki atamalarni mos tarzda ajratishi aytiladi. Masalan:

Tobulg'i, archa, vergin, savr, maymunjon, itsigak, bo'ritaroq, afsonak, yeryong'oq, talg'ir lola, qarag'ay, sarvi archa.

Bunda ochiq urug'li va yopiq urug'li o'simliklarni ajtaring deb topshiriq beriladi. Topshiriqni bajarish uchun so'zlar soniga qarab vaqt beriladi. Bundan tashqari ikki oila o'rtasida(6-sinflarda), ikki sinfni, turkumni(7-sinflarda), ichki, tashqi, aralsh bezlarni, odam organizmidagi organlarni(8-sinflarda) bir biridan ajratib olishida ham qo'llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tolipov O', Usmanbaeva. Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiri. T.O'qituvchi. 2006 yil.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr). - 44 b.
3. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.-180 b. 2010.-140 b.